

SOVET HOKIMIYATINING MULKDORLAR VA RUHONIYLARGA QARSHI QATAG'ON SIYOSATI

Ramz Fayziyev

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18790402>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20 – 30-yillarida Sovet hokimiyatining Samarqand viloyatida mulkdor, ishbilarmonlar va ulamolarga qo'yilgan «sinfiy dushman» tamg'asi va diniy ulamolarga nisbatan olib borgan qatag'on siyosati hamda diniy e'tiqod va xususiy mulkka egalik hissi zo'ravonlik bilan qo'porib tashlangani ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: “Uchlik”, “Quloq”, “Xalq dushmani”, “Yot unsur”, OGPU.

Abstract. This article examines the Soviet authorities' policy in Samarkand Province during the 1920s–1930s of the twentieth century, focusing on the stigmatization of property owners, entrepreneurs/businesspeople, and ulama through the label of “class enemy” (sinfiy dushman), as well as the repressive measures directed specifically against the religious ulama. It further demonstrates how religious belief and the sense of private-property ownership were forcibly dismantled through violence.

Keywords: “Uchlik” (troika); “Quloq” (kulak); “Xalq dushmani” (“enemy of the people”); “Yot unsur” (“alien element”); OGPU (Joint State Political Directorate).

Аннотация. В статье показано, что в 1920–1930-е годы XX века советская власть в Самаркандской области, навешивая ярлык «классового врага» на собственников, предпринимателей и представителей улемов, проводила политику репрессий в отношении религиозного духовенства. Отдельно отмечается, что религиозные убеждения и чувство принадлежности к частной собственности подвергались насильственному подрыву и искоренению.

Ключевые слова: «тройка»; «кулак»; «враг народа»; «чуждый элемент»; ОГПУ.

Kirish

Sovet hokimiyatining siyosiy va ma'naviy sohadagi zo'ravonlik siyosati iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi zo'ravonlik siyosati bilan chambarchas bog'liq edi. Ayniqsa, sovet mafkurasining siyosiy va ma'naviy sohalardagi “sinfiy kurash siyosati” ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda yanada keskinroq namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy sohada sinfiy kurash mulkdorlarni va ulamolarni sinfiy dushman sifatida tugatishda hamda diniy ateizm siyosati ko'rinishida namoyon bo'ldi, iqtisodiy sohada esa bu siyosat xususiy mulkka qarshi kurash va xususiy mulk egalarini ta'qib ostiga olishda namoyon bo'ldi.

Sovet hokimiyatining mulkdorlarga qarshi qatag'on siyosati

Sovet hokimiyati asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, rivojlanib kelgan xususiy mulklarni tortib olish va davlat mulkiga aylantirish jarayonida ularning egalarini sinfiy dushman deb e'lon qilib, ta'qib ostiga oldi.

Ayniqsa, O'rta Osiyoda 1925-1929 yillardagi o'tkazilgan er-suv islohatlari davomida yirik mulkdorlar katta talofat ko'rdi.

Masalan, Samarqand viloyatining Xo'jand uyezdidan 4.125 ta xo'jalikdan er mulklari tortib olingan. Samarqand uyezdining 22 volostida yirik va o'rta xo'jaliklarga tegishli er-mulklari tortib olingan. Yer-suv islohati komissiyasi bu xo'jaliklarga tegishli bo'lgan mehnat qurollari, chorva mollarini ham musodara qilib, tortib olgan.

VKP (b) MQning 1929-yilning 27-iyunidagi qarori bilan mulkdorlarga “quloq va yot unsur” degan tamgʻalari bostirilib, ular sovetlarga saylash va saylanish huquqidan mahrum etilgan.

OʻzSSR XKS 1929-yilning 3-avgustidagi qaroriga binoan yollanma mehnatdan foydalangan dehqon xoʻjaligi, ruhoniylar tabaqasidan boʻlgan imom, mullalar, oʻz mehnat qurollari yoki binolarini vaqtincha yoki doimiy ijaraga berganlar, oʻz xoʻjaligida tegirmon, moyjuvoz va boshqa uskunalaridan foydalanganlar, yiliga 600 soʻmdan ortiq daromad qilganlar quloq deb eʼlon qilingan.

Shu meʼyorga asosan, 1929-1930 yillarda Samarqand viloyatidan 1614 ta xoʻjaliklar “quloq xoʻjaliklari” deb baholangan. Ammo hukumatning quloq xoʻjaliklariga talabi yil sayin kuchayib, eng oddiy dehqon xoʻjaligi ham quloq deb tugatila boshlangan. Aslida quloqlashtirish siyosati xususiy mulk va mustaqil xoʻjaliklarni tugatib, ularning mol- mulkini davlatga tortib olishga qaratilgan edi. Shu maqsada nafaqat yer- suv, hattoki chorva mollari ham tortib olina boshlagan.

Bunday holatda oʻziga toʻq boʻlgan chorvadorlar chorva mollarini yashirishga yoki soʻyishga majbur boʻlishgan. Hukumat tomonidan ularga nisbatan keskin choralar qoʻllangan va mol-mulkni tortib olishda davom etgan. Samarqand bozorida oʻz mulkini kolxozga topshirishni istamagan mulkdorlar ish hayvonlarini sota boshlaganlar. Bozorlarda: Sotmasang, baribir davlat tortib oladi, yaxshisi arzon boʻlsa ham sotgan maʼqul degan fikrlar har kuni, har qadamda eshitilib turardi.

Hukumat tomonidan qancha odamni quloq qilish boʻyicha maxsus reja tuzilgan boʻlib, uni bajarish jarayonida komissiya turli xil adolatsizliklarga yoʻl qoʻygan. Masalan, boyning oʻgʻli, qozining oʻgʻli, oʻzgalar mehnatini eksplutatsiya qiluvchi, avval choyxona egasi boʻlgan, 6 yil oldin 2 ta chorikori boʻlgan degan noaniq ayblov bilan ham koʻpchilik hibsga olinganligi manbaalarda qayd etilgan.

OGPU organlarining 1930-yilning 14-mayidagi maʼlumotida keltirilishicha, Samarqand okrugining Ikromov tumanida 126 xoʻjalikdan jami 50728 soʻmlik mol-mulk, yaʼni, chorva mollari, mehnat qurollari, 35823 soʻmlik uy-joylari musodara qilingan. Yangiqoʻrgʻon tumanidan 61 ta xoʻjalikdan 65559 soʻmlik mol-mulk musodara qilingan.

1931-yilda chorvador okruglarda mol-mulkni musodara qilish ommaviy tus oladi. Samarqand viloyatining Xatirchi tumanidan 27 xoʻjalik mulki musodara qilindi. Ulardan 2100 ta qorakoʻl va 5117 bosh boʻrdoqi qoʻy musodara qilindi.

Manbalarning guvohlik berishicha, partiya va hukumatning yuqori organlari tomonidan baʼzan rejani har qanday usul bilan bajarish maqsadida chorvador xoʻjaliklardan meʼyordan ortiq boʻlgan deb, chorva mollari ham tortib olingan.

Masalan, manbalarda Kattaqoʻrgʻon tumanida shu usulda ish olib borilganligi qayd etiladi. Shu tariqa sovet hokimiyati oʻz shiorlarida xalq farovonligini oshirishga harakat qilayotganligini eʼlon qilsa-da, amalda xalqni oxirgi chorvasi va bir qarich yerigacha tortib olgan. Bu xoʻjaliklardan 6555 bosh chorva hayvoni tortib olindi.

Mol-mulki tortib olingan mulkdorlar “Quloq” sifatida maxsus posyolkalarga joylashtirilgan. Samarqand viloyatining Kattaqoʻrgʻon va Samarqand tumanlarida shunday posyolkalar mavjud edi. Samarqand tumaniga respublikaning turli hududlaridan 275 xoʻjalik, 1025 kishi surgun qilingan, viloyatdagi quloq posyolkalaridagi ahvol juda ayanchli edi. Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan “Qoʻshtongli” qishloq soveti hududida 92 xoʻjalik 387 kishi surgun qilingan boʻlib, ular chaylalarda yashashgan.

Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida Saydon qishlog'i yaqinidagi posyolkada ham quloq qilingan mulkdorlar ham qamishdan qilingan chaylalarda istiqomat qilishgan. Ularga oziq-ovqatlarni qarindoshlari etkazib turgan. Surgun qilinganlar og'ir sharoitda yashashgan. Ular doimiy ravishda dastlab Davlat Siyosiy Boshqarmalari (GPU) 1934-yildan boshlab esa Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) organlari nazoratida bo'lishgan. Oziq-ovqat etishmasligi, meditsina xizmatining yo'qligi, doimiy ho'rlash, haqoratlar natijasida ko'pchilik mehnat qobiliyatini yo'qotib, turli kasalliklardan o'lib ketishgan. Qolganlar esa doimiy ravishda hayot va o'lim oralig'ida yashagan.

Sovet hokimiyati tomonidan mol-mulki tortib olinib, surgun qilingan kishilar jazoni o'tab qaytib kelgandan keyin ham sovet hokimiyati ulardan xavfsirashda davom etgan va ularni yana qaytadan qatag'on qilgan. Samarqand viloyati Jizzax tumanida, Tog'aymurodov Ziyodmaxsum, Oqdaryo tumanidan Mamatqulov Ergash, Abdullayev Ibragim, Iskandarov So'fixonlar, Urgut tumanidan Xudoyqulov Abuhakim, Hojiyev Ahmad, Boymirzayev Mamarasul, Turayev Abdulla, Qodirov Qurbo, Mo'minov Haydar, Mirzayev Aliqul, Xudoyberdiyev Rajab, O'tayev Ismat kabi kishilar shular jumlasidan, bo'lib 2 marta qatag'on etilgan.

Sovet hokimiyatining diniy ulamolarga qarshi qatag'on siyosati

Sovet hokimiyatining islom diniga qarshi olib borgan siyosati mafkuraviy jihatdan xalqning o'tmishi, ma'naviyati, madaniy merosi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asriy e'tiqodidan mahrum etib, uning ongida yagona sovet mafkurasini qaror toptirish maqsadiga qaratilgan bo'lib, buni amalga oshirish uchun bolsheviklar eng avvalo islom dinini targ'ib etuvchi diniy ulamolardan qutulish lozim deb topdilar. Shu sababli diniy ulamolar sinfiy dushman deb e'lon qilindi va tazyiqqa olindi. Bolsheviklar islom diniga qarshi targ'ibot va tashviqotga zo'r bera boshladilar. Bu masala 20-yillarda sovet hokimiyati uchun kun tartibidagi eng muhim vazifalardan biri edi. Masalan, 1923-yil 5-aprelda bo'lib o'tgan Samarqand viloyati partiya konferensiyasida "Dinga qarshi tashviqot" masalasi muhokama etilib, unda dinga qarshi tashviqotni ehtiyotkorlik bilan barcha shaharlarda, fabrika-zavodlarda, qishloqlarda olib borish, bunda aholi orasida katta nufuzga ega bo'lgan jadidlardan keng foydalanish, madaniy hayotda jadidlarning kuch va imkoniyatlarini ishga solish, jadidlar va musulmon ruhoniylari o'rtasidagi ilmiy-g'oyaviy bahslarni hamda musulmon ziyolilarining dinga qarshi kayfiyatdagi qanotini doimo qo'llab-quvvatlash lozimligi alohida ta'kidlangan.

Jadidlarni diniy ulamolarga qarshi qo'yish siyosati muvaffaqiyat qozonmadi. Aksincha, ziyolilar dunyoviy bilimlarni keng targ'ib qilish bilan birga diniy e'tiqodni saqlab qolish va himoya qilishga muhim vazifa sifatida qaradilar.

Sovet hokimiyati dastlabki yillardayoq, islom diniga nisbatan olib borgan siyosati mahalliy aholi orasida norozilik uyg'otib, qurolli qarshilik harakatlarini kuchaytirib yuborgach, bolsheviklar vaqtinchalik yon berishga va qozilik sudlaridan amalda foydalanishga imkon berdilar. Ammo 1924-yilda ommaviy qarshilik harakati bostirilgach, sovet hokimiyatining dinga va ulamolarga qarshi siyosati yana kuchaya boshladi. Bu siyosat machitlarni yopish, diniy ta'limni taqiqlash, diniy adabiyotlarni yo'q qilish kabi tadbirlarda namoyon bo'ldi.

20-yillar oxiri – 30-yillar boshiga kelib esa, sovet hokimiyati sinfiy kurashni avj oldirib, diniy ulamolarni sinfiy dushman sifatida jazolash va tazyiq ostiga olishga kirishdi. Diniy ulamolarni ta'qib ostiga olish yil sayin kuchayib borib, 1937-1938 yillarda avjga chiqqan. Samarqand viloyatida bu davrda o'nlab diniy ulamolar hibsga olinib, qatag'onga uchragan. Ular diniy urf-odatlariga amal qilganlikda yoki diniy adabiyotlar saqlashda ayblanib, hibsga olindi, tergov jarayonlarida esa ular sovet hokimiyatiga qarshi ish olib borganlikda ayblangan.

Mazkur ulamolar orasida sobiq qozilar, mudarrislar, imom va eshonlar bo'lib, sovet hokimiyati eng avvalo ularning mahalliy aholi orasidagi nufuzidan havfsirar edi. Garchi bu paytga kelib, ular diniy masalada o'z faoliyatini allaqachon to'xtatgan bo'lishiga qaramay, sovet hokimiyati ulardan qutulish uchun turli sabab va bahonalar o'ylab topdi. Ulamolarni ular 1917-yil fevral inqilobidan so'ng tuzilib, Ta'sis majlisi uchun siyosiy kurashlarda bolsheviklarga nisbatan ko'p ovoz olgan, mahalliy aholi orasida nihoyatda nufuzli bo'lgan hamda Turkiston Muxtoriyatini tashkil etgan "Sho'roi Islomiyah" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda ayblashdilar.

Aslida sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyatda bo'lgan, bolsheviklarga havf tug'dirgan, xalqqa ta'sir eta oladigan har qanday kuchdan imkon qadar qutulish maqsadi diniy ulamolarni ommaviy ravishda qatag'on qilishning bosh sababi edi.

Sovet hokimiyati tomonidan diniy urf-odatlar doimiy ravishda ta'qib ostiga olingan bo'lib, ushbu holat fuqarolarning noroziligiga sabab bo'lgan. Ushbu norozilik nafaqat islom diniga e'tiqod qiluvchilar balkim, turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar orasida ham yuz bergan.

Masalan, Samarqand shahrida yashovchi bir guruh fuqarolar yahudiylar sinagogi o'rniga maktab qurilishiga norozilik bildirgan bo'lsalar, Mirzacho'l tumaniga chegara tumandagi fuqarolar diniy urf-odatlarga e'tiqod qilishga ruxsat berishmayotganligi uchun o'z noroziliklarini bayon etishgan. Ammo ma'muriyat bu noroziliklarni rad etgan.

Xulosa

Sovet hokimiyatining mulkdorlar va ulamolarga qarshi qatag'on siyosati bir tomondan sovet mafkurasi va iqtisodiy tuzumini qaror toptirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning mol-mulkini davlat hisobiga tortib olishga, uchinchi jihatdan esa sovet tuzumiga qarshi fikrlaydigan har qanday mustaqil fikr egasidan qutulish maqsadiga qaratilgan edi.

Ularning farzandlari o'quv yurtlariga va davlat korxonalariga ishga qabul qilinmagan.

Qatag'onga uchrab, ozodlikdan mahrum etilgan kishilarnig oila a'zolarining ho'rlanishi kundalik voqeaga aylangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov Q.K. O'zbekiston SSRda Sovet rejimining qatag'on siyosati va ununig oqibatlar. T.:Fan, 2025.
2. Toyirov A.E. O'zbekistonda Sovet hokimiyatining qatag'on siyosati (1918-1938 yy). Tarix fan. nom. diss. – Samarqand, 2007.
3. Трагедия средниазиатского кишлака: Коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы. Т. 1. Под редакции д.и.н. Д.А.Алимовой. Т.: Шарк, 2006.
4. Репрессия 1937-1938 годы. Документы и материалы. Отв. редактор Н.Ф.Каримов. – Т.: Шарк, 2005
5. Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан 1917-1990 годы: противобоства идей и идеологи. –Ташкент, 2002.
6. Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketganlar. –Т.: Sharq, 2001.
7. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. –Т.: -Шарк, 2000.